

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK
MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY ASOSLARINI
RIVOJLANTIRISH.****Shermatova Uljamol Shopulat qizi**uljamol2193@gmail.com

Tel +998996777690

Termiz davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maskur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish va uni takomillashtirishning amaliy asoslari yoritilgan. Muallif ekologik tarbiyaning erta yoshdagi bolalar ongida ijobiy munosabat va mas'uliyat hissini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi. Tadqiqot davomida dars jarayonida ekologik mazmundagi interaktiv metodlardan foydalanish, o'yinlar, tajribalar, tabiat qo'ynida tashkil etiladigan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning kasbiy mahorati va didaktik materiallardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan. Xulosa qismida ekologik tarbiyaning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, o'quvchilar ongini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar, ekologik bilim, ekologik mas'uliyat, tabiatga ehtiyotkorlik, o'quv jarayoni, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В данной статье освещаются практические основы формирования и совершенствования экологической культуры у учащихся начальных классов. Автор обосновывает значимость экологического воспитания в формировании положительного отношения и чувства ответственности у детей младшего возраста. В ходе исследования анализируются способы развития экологической культуры у школьников через использование интерактивных методов экологического содержания на уроках, игры, опыты и занятия на природе. Также в статье даны рекомендации по эффективному использованию дидактических материалов и профессионального мастерства учителей. В заключении рассматривается роль и перспективы экологического воспитания в системе непрерывного образования.

Ключевые слова: Начальное образование, экологическая культура, экологическое воспитание, формирование сознания учащихся, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, интерактивные методы, практические занятия, экологические знания, экологическая ответственность, бережное отношение к природе, учебный процесс, педагогический подход.

Abstract: This article highlights the practical foundations for forming and improving ecological culture among primary school students. The author substantiates the importance of ecological education in shaping a positive attitude and a sense of responsibility in young children. During the study, ways to develop ecological culture in students are analyzed through the use of interactive methods with ecological content during lessons, games, experiments, and activities conducted in nature. Additionally, the article provides recommendations on the effective use of didactic materials and the professional skills of teachers. In the conclusion, the role and prospects of ecological education within the system of continuous education are discussed.

Key words: Primary education, ecological culture, ecological education, formation of students' awareness, environmental protection, sustainable development, interactive methods, practical activities, ecological knowledge, ecological responsibility, care for nature, educational process, pedagogical approach.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda atrof-muhit muammolari tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Global isish, ifloslanish, tabiiy resurslarning kamayishi kabi ekologik xavflar insoniyatning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, ekologik madaniyatni shakllantirish va uni yosh avlodda erta bosqichda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiya bolalarning tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va mas'uliyat hissini uyg'otishda asosiy vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish amaliy asoslarini ishlab chiqish, samarali pedagogik metodlarni joriy etish orqali ular ongida atrof-muhitni asrashga doir to'g'ri qarashlar va odatlar shakllantirish ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda dars jarayonida qo'llaniladigan interaktiv va amaliy usullar ko'rib chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik vazifalarni takomillashtirishning konseptual

yondashuvlarga mutanosib ravishda olib borilishi o'ziga xoslikni aks ettirishini ko'rsatmoqda. Maktab o'quvchisini ma'lum bir faoliyat turiga yo'naltirish o'qituvchilar tomonidan belgilangan maqsadga muvofiq bo'lib boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni akomillashtirish mezonlarini ishlab chiqish va belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'quv jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalashning integral ko'rsatkichlarini aniqlashga urinishlarini qiyosiy tahlil qilish, o'quvchining ta'lim jarayoniga qo'shilishi natijasida rivojlanayotgan shaxs xususiyatlarining umumiylikni tavsiflovchi va shaxsning ma'naviy sohasiga pedagogik ta'sirning o'ziga xosligini aks ettiruvchi toifalarga, insonning umumiy ekomadaniyatini rivojlantirishga imkon beradigan faol hayot pozitsiyasini belgilab beradi. Bu jarayonda albatta qo'shimcha ekologik ta'lim masalalariga jiddiy e'tibor qaratish, ularning kreativligini oshirish davr talabi hisoblanadi. Ushbu konseptual yondashuv asosida olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki o'quvchilarga qo'shimcha ekologik ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muammolarni tasniflash mumkin:

ilmiy-uslubiy, tashkiliy va innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish jarayonida aniqlangan dolzarb muammolarni bartaraf etish;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga oid innovatsion darslar, atrof-muhitni zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali loyihalash, o'quvchilar jamoatchiligining ekologik monitoringi va nazoratini tashkil etish;

o'quvchilarga keng qamrovli ekologik ta'lim-tarbiya berishning ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va har bir tadbirda ilmiy - nazariy va amaliy faoliyat elementlarini uyg'unligini ta'minlash;

ta'lim muassasalarining dasturiy va metodik ta'minoti zamon talablari darajasida ishlab chiqish, dars ishlanmalari, o'qitish usul va ta'lim texnologiyalarini Milliy o'quv dasturi talablariga javob beradigan o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

o'quvchilarning atrof-muhit va ekologik tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish va bu boradagi ilmiy-amaliy loyihalarda ishtirokini ta'minlagan holda, ularda amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;

o'quvchilarda ekomadaniyat takomillashtirish borasida umumta'lim muassasalarida olib borilayotgan dasturiy va qo'shimcha ta'limni tashkil etish yuzasidan mavjud nomuvofiqligini bartaraf etish, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda optimal variantlarni ishlab chiqish;

hududiy ekotizimni barqarorlashtirishga xizmat qiladigan ekologik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida o'quvchilarda ekomadaniyat tushunchasini takomillashtirish borasida iqtidorli o'quvchilarni jalb etish hamda mavjud tabiiy resurslardan maqsadli foydalanish;

hududiy ekologik dasturlar doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish davomida ta'lim muassasalarining instrumental-tahliliy, metodik, moddiy-texnik negizini yaratish va takomillashtirish lozim.

Albatta, bu jarayonlarni tashkil etish uchun ma'lum bir shart-sharoit va mavjud huquqiy asos hamda faol harakat amalga oshirilish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak umumta'lim maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish borasida har tomonlama tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish, uning uzluksiz ishlash mexanizmini yaratish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish maboynida o'z harakatlarini bevosita aql yordamida bajaradilar. Bunda tajribaga asoslangan holda hissiy organlar faoliyatiga tayaniladi. Obrazli fikrlash jarayonida esa, muayyan materiallardan u yoki bu vazifalarni bajarish maqsadida obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchining xotirasi yoki kreativ faoliyati natijasida tug'iladi. Buning natijasida o'quvchilar muayyan o'quv-bilish harakatlarni bajaradi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatiga asoslangan o'quv jarayonida ular axborotlarga tayanish va mazkur axborotlarning mazmunini qayta ishlashga harakat qiladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi ularning idroki, tasavvurlari va dunyoqarashida aks etadi. Bu tarzda tafakkurning reproduktiv (mustaqil bo'lmagan) hamda mustaqil tarzda namoyon bo'ladigan produktiv (mahsuldor), konvergent (o'zaro o'xshash) hamda divergent (tafovutli) turlari mavjud.

O'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzi uchun, asosan, mustaqil bo'lmagan reproduktiv hamda o'zaro o'xshash, ya'ni konvergent fikrlash tarziga xosdir. O'quvchilarning reproduktiv tafakkur tarzi tayyor bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan. Bu ularga o'quv materiallarini o'zlashtirish va esda saqlab qolish imkonini beradi. Bu, asosan, diqqat va xotiraning imkoniyatlariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. O'quvchilarning bunday tafakkur tarzi muayyan pedagogik qimmatga ega. Ularning rivojlanishi esa, o'quv jarayonining muayyan bosqichlarida amalga oshiriladi. O'quvchilarning konvergent, ya'ni o'zaro o'xshash tafakkur tarzining rivojlanishi ularga muammoning yagona, eng qulay yo'lini topish imkonini beradi. Bu esa, o'quvchilar oldiga qo'yilgan savollarga ularning to'g'ri javobni izlashlari va topishlarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish ularning intellektual rivojlantirishning muhim shartidir. Bugungi kunda intellektual jihatdan taraqqiy etgan shaxsni shakllantirish uchun, o'quvchilarning bilishga asoslangan tafakkur tarzlarinigina rivojlantirish yetarli emas. O'quvchilar tabiat va kishilik jamiyati qonuniyatlarini tushunishlari uchun, ularni tabiat - jamiyat olamiga olib kirishlari lozim. Buning uchun, o'quvchilarning ko'pdan-ko'p masalalarda o'z shaxsiy nuqtai nazarlariga ega bo'lishlari talab etiladi. Shu maqsadda ularni ma'naviy, intellektual jihatdan takomillashtirish kerak. Shu bois o'quvchilarda ekologik madaniyatni takomillashtirish nihoyatda zarur.

Ekologik ta'lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida ongli ravishda foydalanishga, psixologik, odob - axloq yuzasidan yosh avlodning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf - odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u - rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishga qaratilgan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shermatova, U. (2024). Ecological Education In Primary Classes Formation Of Pedagogical Conditions Of Development. *World Bulletin Of Social Sciences*, 33, 49-53.
2. Shermatova, U. (2024). Ecological Education Teaching In Primary Class Methodology. *Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments*, 2(4), 97-105.
3. Uljamol Shermatova. (2023). Development Of Ecological Education In Primary Class. *Open Access Repository*, 9(10), 152–157.
4. Shermatova, U. (2020). The Light Of The Nights Without A Day. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol*, 8(4).
5. Shermatova Uljamol. Improving Ecological Education Of Future Teachers On The Basis Of Conceptual Principles *International Journal Of Trend In Scientific Research And Development (Ijtsrd)* Volume 6 Issue 3, March-A
6. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich Ta'limda Ekologik Xafvsizlik Madaniyatini Takomillashtirish. //Муаллим Ҳем Узлуксиз Билимлендириў. Илмий-Методикалық Журнал №2 Issn 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.

7. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang 'Ich Sinf O 'Quvchilarida Ekologik Madaniyatni Rivojlantirish Xususiyatlari. *Inter Education & Global Study*, (10), 373-379.

8. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang'ich Sinflarda Ekologik Ta'limni Rivojlantirish Metodikasi. *Inter Education & Global Study*, (4 (1)), 50-56.

9. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta'lim. - 2018. -11-son. - B. 53-58.

10. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //Муаллим хем узлуксиз билимлендириў. Илмий-методикалык журнал №2 ISSN 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.